

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.X.Hakimov, A.A.Abdumalikov, Ё.З.Нуриддинов Объективные и субъективные факторы в возникновении первого периода восточного ренессанса (IX-XII вв.).....	5
D.E.Normatova, S.N.Muxammadova Dialektikaning paydo bo'lishi va uning namoyandalari.....	12
N.M.Axmadiyev Milliy o'zlikni anglashda Vatanparvarlik tamoyilining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari.....	15
Д.А.Исаева Влияние медиа на развитие античной философской мысли	18
I.A.Asatulloev Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida diniy mavjudlikni anglashning axloqiy ahamiyati	22
O.B.Shokirov Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida san'at imkoniyatlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili	28
R.B.Abduraxmonov Oilaviy zo'ravonlik tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari	32
X.J.Toshpo'latov Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda viktimologik profilaktika tizimini yuksaltirishning falsafiy masalalari.....	36
A.I.Abdullaxo'jaev Is'hoqxon ibrat va "Tabodili zamon": ijtimoiy-falsafiy tahlil	39
I.T.Yuldashev Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili	43
A.A.A'zamjonov Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda amaliy san'atning badiiy-ijodiy imkoniyatlari.....	47
M.K.Soipova Fazl Ibn Ahmad ta'limotida ontologik masalalarning qiyosiy tahlili	51
S.F.Abdusattarova Models of social processes: a philosophical perspective on the interaction between humans and society.....	55
S.R.Xoldarov Zamonaviy jamiyatda konfutsiychilikni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari	60
Sh.B.Samanova Atrof-muhit muvozanatida ekologik madaniyatning o'rni.....	66
R.Orziboyev G'oyaviy birdamlik tushunchasi va uning falsafiy tahlili.....	70

SIYOSAT

Z.Sh.Turg'unboyev O'zbekiston va Afg'oniston savdo-iqtisodiy integratsiyasi ahamiyati: tahlil va kelajakdagi imkoniyatlar	74
Ф.М.Бафоев Проблемы нелинейного воздействия и неравновесность в современной мировой политике	80
A.To'xtasinov Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.....	84
U.U.Sattarov O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha normativ-huquqiy asoslar.....	88
B.T.Shokirov Kiberxavfsizlikning davlat siyosat darajasiga ko'tarilishi: zamonaviy tahdidlar va strategiyalar	94



UO'K: 1:28(093)

IS'HOQXON IBRAT VA "TABODILI ZAMON": IJTIMOY-FALSAFIY TAHLIL

ИСХАКХАН ИБРАТ И "ТАБАДИЛИ ЗАМАН": СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

ISHAKHAN IBRAT AND "TABADILI ZAMAN": SOCIAL AND PHILOSOPHICAL

Abdullaxo'jaev Adxamxo'ja Isaxo'ja o'g'li 
Qo'qon universiteti o'qituvchisi

mustaqillik fidoyisi, davlat va jamoat arbobi, ma'rifatparvar shoir, olim va publisist, ilg'or pedagog, qozizoda, to'raqo'rg'on farzandi Is'hoqxon Junaydulloxo'ja o'g'li Ibratning zamon o'zgarishlariga pozitiv munosabati hamda mutafakkirning

Аннотация

В статье анализируется позитивное отношение борца за независимость, государственного и общественного деятеля, просвещённого поэта, учёного и публициста, передового педагога, кази, сына Торакургона Исхакхона Жунайдуллоху́джа огли Ибрат к изменениям времени, а также его творческая и строительная деятельность.

The article analyzes the positive attitude of the independence fighter, state and public figure, enlightened poet, scholar and publicist, progressive educator, qazi, and the son of To'raqo'rg'on, Is'hoqxon Junaydulloxo'ja o'g'li Ibrat, towards the changes of the time, as well as the thinker's creative and constructive activities.

Kalit so'zlar: *jadidchilik harakati, ma'rifatparvar shoir Is'hoqxon to'ra, To'raqo'rg'on, istiqloq fidoyisi, madaniyat targ'ibotchisi, oliy ilm, tahririyat va nashr, yangi maktab, usuli savtiya, tarixi madaniyat, tarjimon, ma'naviyat va ilm, tabiatshunoslik, bunyodkorlik faoliyati, xattotlik, falsafiy qarashlar, Is'hoqxon to'ra asarlari, Inqilob va Sho'ro davri*

Ключевые слова: *Джадидизм, просвещённый поэт Исхакхон Тора, Торакургон, идеолог независимости, пропагандист культуры, высшее образование, редакция и издательство, новая школа, метод Савтия, история культуры, переводчик, духовность и наука, природоведение, строительная деятельность, каллиграфия, философские взгляды, произведения Исхакхона Тора, революция и советская эпоха.*

Jadidism movement, enlightened poet Is'hoqxon To'ra, To'raqo'rg'on, ideologist of independence, culture propagandist, higher learning, editorial and publishing, new school, Usuli Savtiya method, history of culture, translator, spirituality and science, natural sciences, construction activities, calligraphy, philosophical views, works of Is'hoqxon To'ra, revolution and Soviet era.

KIRISH

O

Is'hoqxon To'raning faoliyat ko'lamini shu qadar keng bo'lganki, ham jadid namoyandasi, ham shoir, ham publisist, ham noshir, ham yozuvchi, ham hoji, ham bog'bon, ham quruvchi, ham tilshunos, ham tarjimon, ham xattot, ham sayyoh, ham muallim, ham tarixchi, ham faylasuf, ham qozi, ham tasavvuf allomasi, ham islohotchi, ham madaniyat targ'ibotchisidir. Zamondoshlaridan birining ta'rifiga ko'ra: "Is'hoqxon To'ra sayyidzoda ham hoji va olim va fozil bir zoti oliy o'lub, bu turfa fazoyili insoniyya molik ham xattoti azimdur. Chunki musulmoncha xat yozmoqdin o'n etti nav' yozuv birla qalam yurguzurlar"[1;158-b].

Is'hoqxon Ibrat jahon ilm-fan va madaniyati bilan bog'liq har qanday innovatsiya va o'zgarishlarni qabul qilibgina qolmay, balki ularni xalq hayotiga harakat qilib harakat qilgan. Uning taratuvchilik va bunyodkorlik ishlari ham tahsinga sazovordir. Chor hukumati mustamlakachilik siyosatining avjiga chiqishi mahalliy aholi o'rtasida rus tiliga bo'lgan ehtiyojni oshirgan. Rus-tuzem, "usuli savtiya" maktablari o'lkaning katta shaharlarida, hattoki qishloqlarda ham ochilgan. Bu maktablarda dunyoviy fanlar, ona tili bilan bir qatorda rus tili ham o'qitilgan. Zamon talablarini

yaxshi tushungan ilg'or fikrli kishilar farzandlarini yangi maktablarga yuborganlar. Is'hoqxon To'ra ham 1886 yilda ilg'or maorifchi sifatida o'z qishlog'ida bepul yangi maktab ochgan. Uning maktabi "usuli qadim" ("usuli tahajji"), ya'ni hijo usuliga asoslangan maktabdan farq qilgan, ya'ni "yangi maktabda "alif nima?" degan savolga "kaltak" deb javob beruvchilar tamom savodi chiqib, har n

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Mustaqillik yillarida jadidchilikni yangi nazariy-metodologik tamoyillar asosida o'rganish sohasida salmoqli ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Jadidchilik harakatini o'rganishning dolzarbligi, uning tushunchasi, mohiyati, mazmuni, tarkibi va ko'lamini to'g'risida adabiyotshunos, tarixchi olimlardan – B.Qosimov, P.Mirzo-Axmedova, D.Rashidova, R.Shamsitdinov, I.G'afurov, D.Alimova, R.Sharipov, S.Qosimov, B.Qosimov, X.Suvon, Sh.Turdiyev, N.Avazov, H.Sayyid, N.Karimov, D.Alimova, D.Rashidova, A.Aliev, Sh.Rizaev, olmon olimasi Ingeborg Baldaufning va boshqalar o'z asarlarida qimmatli fikr va mulohazalarni bildirdilar. Olimlardan M.Fattoev[3], A.Zohiriy, Q.Rajabov, X.Ismatullaev, R.Sharipov, Z.Eshmurodovlarning ilmiy-tadqiqotlarida, bir qancha nomzodlik va doktorlik dissertasiyalarida jadidlarning vatanparvarlik g'oyalari, ma'naviy-ma'rifiy manbalar, turmush madaniyatini isloh qilish muammolari, falsafiy-estetik qarashlar tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Usuli jadid demak – yangi qoida, yangi tartib demakdur desak, hama qabulga olmagan edilar. Gardishi ovon va xohishi zamon ila o'zi-o'zicha joriy bo'lib ketti. Avvalgi vaqtdagi mahalla maktabida banda o'zum necha yilda uch adad muallimda o'qub, oxiri savodim chiqmay, keyin o'z uyimizda joriy qizlar maktabida, volidai marhumamda o'qub, savod chiqordim. Ikki sana qiblagohimda husnixat mashq etdum. Boqing, mahalla maktabida usuli qadimda etti yil umrni zoyi' etub, o'quv-yozuvni bilgon edum. Mana emdi banda o'zum usuli savtiyani(ng) avlodi islomg'a yordamini ko'rub, o'z masjidimizg'a maktab ochdim. Bir sanada ko'b yoshlar, hattoki katta yoshga kirgan tujjorlardan o'qub, xat-savodini chiqorub, ma'ishat va tijoratlarida osonliklar mushohada b

Is'hoqxon To'ra yangi maktabga tovush (savtiya) usulini tatbiq qilib, bir muddat "usuli savtiya"ni eski usul tarafdorlaridan himoya qilgan. Shunga qaramay, yangi maktab faoliyati uzoq davom etmagan. Johil va mutaassib kishilar yangi maktabni "kofirlar maktabi" deb e'lon qilib, bolalarni maktabdan qaytarishga, general-gubernator gumashtalari yordamida yangi maktabni yoqtirishga muvaffaq bo'lishgan.

Is'hoqxon To'ra pishgan g'isht ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan. G'ishtlar guldor hamda besh burchak naqshinkor uslubda tayyorlangan. Jumladan, 1896 yilda mazkur g'ishtdan To'raqo'rg'on markazida masjid qurdirgan. Masjid ikki xonali bo'lib, oldi ayvonli qilib qurilgan. 1916 yilda to'rtburchak shakldagi zal hamda qariyb yigirma metrlar chamasi qo'shayvon bilan kengaytirilgan. Zalda to'rtta ustun bo'lib, ustunlar o'ymakorlik san'ati namunalari bilan bezatilgan. Masjidagi xattotlik ishlarini Is'hoqxon To'raning o'zi amalga oshirgan. Masjid sho'rolar davrida maktab sifatida, keyinchalik ma'muriy bino va boshqa maqsadlarda foydalanilgan[5].

Is'hoqxon To'ra otasidan qolgan uch tanob[6] erda gulbog' yaratib, maydon o'rtasiga favvora qurdirgan. Xiyobonga rus va Evropa manzarali daraxtlari, shuningdek, 150 tup archa daraxti o'tqazgan. Evropa uslubida imorat qurdirib, arki tepasiga "Xush kelibsiz Is'hoqiya bog'iga!" deb yozgan. Bog' qishloq aholisiga manzur bo'lgan. Gulbog' sho'rolar davrida davlat hisobiga o'tkazilib, o'rnida aholi turar joylari qurilgan bo'lsa ham, hozirga qadar "Is'hoqiya bog'i", "Gulbog'" deb ataladi.

Is'hoqxon To'ra Orenburgdan sovutgich, fotoapparat, kinoapparat olib kelgan. Qishloq aholisini yig'ib, kinofilm qo'yib bergan. Ularni suratga olgan, taraqqiy etgan madaniy shaharlar aholisining turush-turmushi haqida ma'ruzalar qilgan. Shunga qaramay, uning bunyodkorlik ishlari dunyoqarashi tor mutaassib kishilarga yoqmagan, aksincha, ularning g'azabini keltirgan. Ular Is'hoqxon To'raga tuhmat toshlari yog'dirib, "kofir" deb, lbrat ochgan maktabni "kofirlar maktabi" deb, ta'qib qilishgan.

Is'hoqxon To'ra 1905-yilda o'z hisobidan turk hammomi qurdirgan. Hattoki "Turkiston viloyatining gazetisi"da uning hammomga bag'ishlangan she'ri chop etilgan. Mutaassiblar hammomni "harom" deb e'lon qilishgan.

Taqdir zarbalariga metin iroda bilan qarshi turgan Is'hoqxon To'ra ta'qib va tuhmatlarga e'tibor bermay, qiyin sharoitda ham ma'rifatparvarlik faoliyatini davom ettirgan. lbrat aqli komil

FALSAFA

inson sifatida "...dunyoning sonsiz mehnat va anduhlarindin va guruhi kajraftor ta'nalarindin bir zarra qadar o'lsa-da, maluliyat hosil etmadi"[7;158-b].

Is'hoqxon To'raning zamon o'zgarishlariga munosabati uning "Tarixi madaniyat" asarida f va madaniyat, taraqqiyotga bag'ishlangan asarlarining ro'yxati diqqatimizni tortdi. Jumladan, "... yangi asarlardan millat va maktabga foydaliklari, chunonchi, birinchi "Tarixi Farg'onai umroni" nazmiy, ikkinchi "Tarixi xurriyat" nazm, uchinchi "Mezon uz-zamon", to'rtinchi "Lug'ati sitta al-sina", beshinchi "Jome' ul-xutut", oltinchi "Qo'rboshilar zamoni", ettinchi shul kitob "Tarixi madaniyat", bular hammasi milliy kitoblar. Ammoki, sakkizinchi "Devoni Ibrat" nomli g'azaliyot bahr qilgan, o'ttiz nda jam' bo'lgan tarix she'rlardurki, munda ko'bi tarixlar va milliy qasidalar va axloqiy tanqidlar, boshimizdan o'tgan hodisalarni jam bir g'azaliyot kitobdurki, bu hali bosma bo'lmagan, intishor etilmagandur. To'qqizinchi mundin keyin "Gulshani roz"ni turkiy nazmi, o'ninchi "Mushkulot ul-g'aroyib" degan, o'n birinchi "Muzabzab" degan, o'n ikkinchi "Turkistonda turli mashaqqatlar", o'n uchinchi "Barzah" degan asarlarimiz inqilob davrida ta'lif bo'ldi (yo'qoldi). Hozirda "Tazkirai suvaydo" degan arabiy tib kitobni turkiy qilmoqqa ishtig'oldaman. Umr musoada qilsa, ammoki "Tarjimai holim" tayyor bo'lgan. Bu yaxshi tarixi sayohatnoma Afg'oniston, Hindiston, Arabiston ayohatlaridur. O'n beshinchi "Sayri jibol" ("Tog' sayri") bir juz' turkiy nazmdur"[8;139-b].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Is'hoqxon To'ra inqilobga qadar va sho'rolar davrida yigirma yildan ortiq To'raqo'rg'on va Xonobod qishloqlarida qozi lavozimida ishlagan. Faoliyati davomida xalq manfaatlarini ko'zlab, halollik, to'g'rilik va adolat bilan ish olib borgan.

Is'hoqxon To'ra "usuli savtiya" maktablarini darsliklar va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash ishida ham bosh-qosh bo'lib, "Matbaai Ishoqiya"da darslik va o'quv qo'llanmalar nashr ettirgan.

Is'hoqxon To'ra xalqni ilm-ma'rifatga targ'ib etish bilan birga ularni mo'rorlarga sig'inish, folbinlarga borish, muqaddas qadamjoylarda "is" chiqarish kabi xurofot va bid'atdan qaytargan.

Is'hoqxon To'ra tabiatan ochiqko'ngil va mehmondo'st bo'lgan. Namanganga kelgan ilmu irfon ahli va ixlosmandlar Is'hoqxon To'raning uyiga kelib, ziyorat qilishgan. Uning hovlisida ekilgan to'rt tup archa o'rtasidagi peshtoq va ustunlar bilan bezatilgan ravoq hamisha mehmonlar bilan g'oyalari, zamon o'zgarishlari mujassam bo'lgan maqolalar yozib, xalqni jaholat, turg'unlik va g'afatdan ma'nan uyg'otishga, ilm-ma'rifat va hunar egallashga, dunyoning ilg'or mamlakatlari taraqqiyotiga etib olishga chorlagan. Serqirra ijodkorning faoliyati 1937 yil yanvarigacha davom etgan. Is'hoqxon To'ra 1937-yil 7-yanvarda qamoqqa olingan. Ibratning xonadonidagi qo'lyozma va toshbosma kitoblar to'rtta qanor qopga joylanib, Andijon turmasiga olib ketilgan. Uy-joylari musodara qilinib, kimoshdi savdosida sotib yuborilgan. Oilasi va farzandlari uch sotixdan iborat quruq erga chiqarib qo'yilgan. Is'hoqxon To'ra qamoqdalik vaqtida (ikki oy davomida – Z.I.) tuz totmay, muttasil ro'za tutgan. Sud jarayonlari tugamay, 75 yoshida qamoqda vafot etgan. Zulm va zo'ravonlikka qurilgan mustabid, beshafqat tuzum davrida o'zligini, millat qadr-qimmatini teran anglagan, ijtimoiy-siyosiy ongi yuksak, ma'rifat va ma'naviyat yo'lida fidoyilik ko'rsatgan ko'plab Is'hoqxon To'ra Ibratning qabri ham qayerda ekani hozirga qadar noma'lum. 1959-yil 2-oktyabrda Andijon viloyat prokuraturasining 3336-sonli hujjatiga ko'ra, umrini ma'rifat va ezgulikka bag'ishlagan Is'hoqxon To'ra aybsiz topilib, to'la oqlangan.

a'rifatparvar, fidoyi insonlar kabi Is'hoqxon To'raning huzur-halovatdan kechib, el-ulus manfaati, yurtni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o'chmaydiki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "ulug' ajdodimiz "Ibrat" taxallusini bejiz tanlamagan[9;74-75-b]. Mutafakkirning Vatan va mamlakat taraqqiyoti yo'lidagi fidokorona ijod yo'li nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham haqiqiy ibrat namunasi bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Haqso'z. Xo'qand, Davron // Turkiston viloyatining gazet. 1908. 56-son / Is'hoqxon To'ra Ibrat. Tanlangan

-bet.

3. Fattoyev M. Atoqli pedagoglarimiz. -T.: O'qituvchi, 1988; Ismatullaev X. Gasprali Ismoilbey va Turkiston. // O'zbek tili va adabiyoti. 1990.4-son; Abdullin Ya.G. Shigabuddin Mardjani i Srednyaya Aziya. // Obshestvennie nauki v Uzbekistane. 1991; Nagaev S. Adolat-ruhiyat manzili (Gaspirinskiy va Cho'lpon) // Sharq yulduzi. 1999.1- son; Sharipov R. Jadidchilik harakatining ma'naviy-ma'rifiy ildizlari. // Hayot va qonun. 2001. 6-son; Eshmurodova Z. Jadidchilikning ma'naviy-estetik ideali // Guliston. 1994.2-son; Ergashev B.X. Iz istorii stanovleniya i razvitiya obshestvennopoliticheskix

idey djadidizma. Ideologiya molodobuxarsev: Diss. d-ra filosof. nauk. –Buxara. 1993. S.-314; Xudaykulov A.M. Prosветitelskaya deyatelnost djadidov Turkistana v konse XIX-nachale XX.: Avtoref. dis. ...kand. ist. nauk. –T.: 1995. S.-24; Mahmudova G.T. Turkistonda jadidchilik harakati va uning axloqiy-estetik fikr taraqqiyotiga ta'siri: f.f.n... dis. -T.: 1996. -158 b; G'oibova Sh.O. Abdurauf Fitratning ijtimoiy-falsafiy qarashlari: F.f.n...diss. -T.: 1996. -152 b; Qozoqov T.K. XX asr boshlarida Farg'ona vodiysidagi ijtimoiy-siyosiy ahvol va jadidchilik harakati6 tarix fanlari nomzodi...dis.-T.: 2001.-181-bet

5. 1990 yilda masjid xashar yo'li bilan qayta ta'mirlanib, kengaytirilib, qo'shimcha ikkita xona qurilgan. Hozirda ham Jome' masjidi sifatida foydalaniladi va bu erda 200 nafar namozxon ibodatlarini ado etishadi.

6. Tanob (arab. - chilvir, arqon) O'rta Osiyo xonliklarida tomonlari 60 gazdan iborat bo'lgan maydonga teng, ya'ni ekin maydonini o'lchash uchun qo'llanilgan yuza birligi. 1 T. 60x60 kv. gaz =3600 kv. gaz =0,08194 ga=900 kv. m (1 ga=12 tanob).

7. Haqso'z. Xo'qand, Davron // Turkiston viloyatining gazet. 1908. 56-son / Is'hoqxon To'ra Ibrat. Tanlangan

8. Is'hoqxon To'ra Ibrat. Tarixi madaniyat / O'zR FA ShI Qo'lyozmalar fondi. Inv. № 11616. 139-bet. kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 74-75.